

OILADA XOTIN-QIZLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO'RAVONLIK SODIR ETGAN SHAXSLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI

Adilkariyev Xojimurod T'oxtamurodovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutiyetakchi ilmiy xodimi, yuridik fanlari doktori, professor

Murodov Alisher Sharofxonovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi magistratura boshlig'i o'rinbosari, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Maqolada xotin-qizlarga nisbatan oiladagi tazyiq va zo'ravonlikning profilaktikasini samarali tashkil etish yuzasidan ba'zi fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, oila, zo'ravonlik, tazyiq, huquqbuzar, jabrlanuvchi, huquqiy targ'ibot, maishiy nizo, huquqbuzarliklar profilaktikasi.

Abstract. The article expresses opinions and comments on the effective organization of the prevention of domestic violence and violence against women.

Keywords: women, family, violence, harassment, offender, victim, lawyer's defense, domestic dispute, prevention of offenses.

Jinoyatchi shaxsining o'ziga xos xususiyatlarini bilish sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni barvaqt aniqlash va oldini olishga, shaxsda mavjud g'ayriijtimoiy xulq-atvorni o'rganish va uni tuzatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqbuzar shaxslarni ilmiy jihatdan o'rganish asosida ushbu turdagi huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi amalga oshirish uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

Jinoyat sodir etgan shaxslarga umumiy ta'rif berish va ularni statistik tahlillar orqali o'rganish shaxslarning ma'lum toifalariga xos bo'lgan xususiyatlarini aniqlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashni rejalashtirish va uning oldini olish uchun tegishli choralar ko'rish imkonini beradi [1]. Zero, jinoyatchi shaxsiga xos bo'lgan ijtimoiy demografik belgilarni tadqiq etish, birinchidan, ularga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlashga, ikkinchidan, jinoyatchi shaxsning jinoiy xulq-atvorini tadqiq etishga, uchinchidan, ma'lum bir mintaqada, ma'lum davrda oila-turmush doirasida sodir etilgan jinoyatlar hamda ularning sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni o'rganishga ko'maklashadi.

Jinoyatchi shaxsini tavsiflovchi eng muhim kriminologik belgi sifatida uning yoshi muhit bilan o'zaro aloqasiga, ma'naviy olamning ichki mohiyatiga, xulq-atvoridagi yaqqol ifodalangan

ikkilanishlar va beqarorlikka sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi [2]. Jinoyatchi shaxsining kriminologik tahlilida yoshga oid tavsif bilan bir qatorda, uning ma'lumot darajasi ham muhimdir. Insonning ma'lumot darajasi uning talab, ehtiyoj va manfaatlarini, ma'naviy-axloqiy va madaniy ko'rinishlarini shakllantiradi [3].

Tadqiqotimiz jarayonida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning yoshiga oid ma'lumotlari tahlil qilinganida, ularning 16,3 %ni 18-25, 37,6 %ni 25-35, 29,9 %ni 35-45, 12,3 %ni 45-55 yoshdagi hamda 6,3 %ni 55 yoshdan yuqori bo'lganlar tashkil etdi. Tahlildan ko'rish mumkinki, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning kriminogenlik darajasi yuqoriroq bo'lgan qismi 25-35 yoshdagilarni tashkil etmoqda.

Tahlil etilayotgan toifadagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning 41,5 % ishsizlar, 34,7 % ilgari sudlanganlar, 14,6 % profilaktik hisobda turgan shaxslar, 9,2 % ishchi-xizmatchilardir. Bunday jinoyatlarni sodir etganlar ichida davlat xizmatchilarining kamligi, ishchilar salmog'ining ko'pligini, shuningdek ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanmaydigan (vaqtincha ishsiz) shaxslarning jinoiy faolligi yuqori ekanligi kuzatiladi.

Shuningdek, ushbu toifadagi shaxslarning ma'lumot darajasi tahlil qilinganida quyidagilar ma'lum bo'ldi: 2 % – oliy ma'lumotli; 31 % – o'rta maxsus; 63 % – o'rta ma'lumotli; 4 % – to'liqsiz o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslardir. Ushbu toifadagi shaxslarning jinsga oid ma'lumotlari tahlil qilinganida, oilada zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etuvchilar asosan erkaklar bo'lib, ularning hissasi 82 %ni tashkil etadi.

Yuqorida qayd etilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, jinoyat sodir etgan shaxslarning asosiy qismi, ya'ni 63 % – o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar, 41,5 % ishsizlar, 34,7 % ilgari sudlanganlar hissasiga to'g'ri keladi.

Maxsus buyurtma asosidagi grant doirasida o'tkazilgan tadqiqot jarayonida so'rovda ishtirok etgan respondentlarga «Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik jinoyatlari kimlar tomonidan sodir etilmoqda»? deb so'ralganida, ularning 81,4 % erkaklar, 18,6 % ayollar (kelinga nisbatan qaynona, qaynopa, qaynsingil va h.k.) tomonidan sodir etishini ma'lum qilishgan.

Shuningdek, ulardan «Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik asosan qaysi toifadagi oilalarda sodir etilmoqda»? deb so'ralganida, ularning 30,7 % nosog'lom muhit hukmron bo'lgan oilada, 30,4 % notinch nizoli oilada, 17,6 % spirtli ichimlik iste'mol qiluvchilar oilasida, 7,5 % kam ta'minlangan oilalarda, 2,7 % ilgari sudlanganlar oilasida, 4,5 % noto'liq oilada, 2,7 % profilaktik hisobga olingan oilada, 2,1 % qayta qurilgan oilada, 1,8 % giyohvandlik moddalarini iste'mol qiluvchi shaxslar yashaydigan oilada, deb javob berishgan.

Professor I.Ismailov o'z tadqiqotlarida jinoyatchi shaxslarga oid ma'lumotlarni o'rganib, shaxsda ma'lumotning kamligi, madaniyat darajasining pastligi qiziqishlarining anchagina tor bo'lishiga, axloqning dag'allashuviga, shaxsiyatparastlik va xudbinlik xislatlarining rivojlanishiga olib keladi[4], deb ta'kidlaydi. Nazarimizda, ushbu fikr mantiqan to'g'ri, chunki tadqiqotimiz jarayonida o'rganilgan jinoyatchi shaxslarning aksariyati bilim saviyasi va ma'lumot darajasi o'rta bo'lgan shaxslar ekanligi aniqlandi.

Darhaqiqat, ma'lumot darajasining yetarli emasligi, axloqsizlik, tarbiyasizlik, ma'naviyatning pastligi, molparastlik, chaqimchilik kabi illatlar g'arazli maqsadlarning paydo bo'lishiga va uni amalga oshirishiga turtki bo'ladi. Bunday

xulq-atvorning mavjudligi kutilmaganda turli jinoyatlarning sodir etilishiga olib kelishi mumkin. Zero, har qanday jinoyatda jinoyatchi shaxsi va obyektiv vaziyat o'zaro bir-biriga ta'sir etuvchi murakkab tizimdan iboratdir.

Mutaxassis olim A.N.Ilyashenkoning fikricha, jinoyatchi shaxsini ilmiy jihatdan o'rganish uchun uning jinoiy xulq-atvor motivlarini tadqiq etish taqozo etiladi. Chunki, xulq-atvor motivatsiyasi shaxs va uning xususiyatlari va qiziqishlari bilan uzviy bog'liqdir [5]. Negaki, jinoyat sodir etgan shaxslarning hissiyot va g'arazli niyatlari hayotdagi qiyinchilik, tazyiq yoki ruhiy buzilishlar natijasida yuzaga keladi [6].

Bizning nazarimizda, xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonlikning aksariyatida shaxsning hissiyotini jilovlay olmasligi yoki ruhiy buzilishlar jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, Mirobod tumanida yashovchi 24 yoshli erkak oshxona pichog'i bilan qurollanib, 21 yoshli turmush o'rtog'i tanasiga qasddan 30-marta pichoq urgan. Achinarlisi, ularni ajratishga harakat qilgan qaynonasiga ham 7-marta pichoq bilan zarba bergan. Ayol voqea joyida vafot etgan. Onasi og'ir ahvolda shifoxonaning jonlantirish bo'limiga yotqizilgan. Erkak qo'lga olingan, ularning 9 oylik chaqalog'i bolalar uyiga olib ketilgan [7]. Jinoyatning bu tarzda sodir etilishi jinoyatchi shaxsda insoniy xususiyatlar va rahm-shafqatning yo'qligidan dalolat beradi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning ruhiy holati va g'ayriijtimoiy xulq-atvorini o'rganish profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs jinoiy xulq-atvorini o'rganish borasida psixolog olimlar, psixiatr va nevrologlar ko'plab tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, Z.Freydning "psixanaliz nazariyasi"ga ko'ra shaxs jinoiy xulq-atvori va fazilatlarini tabiiy instinktiv mayllarga bog'liq bo'ladi. Ya'ni, shaxsning xulq-atvorini harakatlantiruvchi kuchi va jismoniy hayotining mazmunini jinsiy instinkt belgilaydi [8].

Har qanday jinoiy faoliyat ko'p jihatdan jinoyatchining o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlariga bog'liq [9]. Shu bois, jinoyatchi shaxsni psixologik jihatdan o'rganishda uni ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqadorligini tahlil qilish zarur. Zero, shaxsdagi jinoiy xulq-atvor bevosita ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda

shakllanadi. Jinoyatchi shaxsini tavsiflash va baholash uchun uning ham ijobiy, ham salbiy xulq-atvorini belgilovchi fazilatlari va xususiyatlari o'rganilishi lozim.

Ko'pgina tadqiqotchilar jinoyatchi shaxsning jinoiy harakatga undovchi motivlari, qiziqishlari, tabiati, yon-atrofidagi shaxslar bilan o'zaro munosabati, ma'naviyati, ruhiy zo'riqishlari unda jinoyatchilik xulqini keltirib chiqarishi mumkinligi haqida turli fikr-mulohazalarni ilgari surganlar.

Jinoiy xulq-atvorning kelib chiqishi ijtimoiy omillar bilan bog'liq, biroq agressivlikni biologik obyekt, ya'ni insonga xos bo'lgan doimiy xususiyat sifatida, tajovuzini esa muayyan sharoitlarda sodir etiladigan harakat sifatida farqlash lozim [10]. Shaxsdagi agressiv xulq-atvor ko'pincha shaxsga biologik nasldan-naslga ko'chib o'tuvchi murakkab holat hisoblanadi.

Tahlillarga ko'ra, shaxsga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilishida asosan oilaviy muammolar natijasida kelib chiqqan janjallar sabab bo'lmoqda. Oiladagi nizoli vaziyatlar oqibatida, odatda, shaxsga nisbatan tan jarohati yetkazish bilan bog'liq jinoyatlar sodir etiladi. Fikrimizcha, shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi uning jinoiy xulq-atvoriga bog'liq bo'lib, jinoyatchi shaxsning ma'lumot darajasi va ma'naviyati pastligi uning jinoyat sodir etishiga turtki beruvchi omillardan hisoblanadi.

Tadqiqotimiz jarayonida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etuvchi shaxslar oilasida oila a'zolari bilan bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar jarayonida salbiy xulq-atvorli, tajovuzkor, axloqsiz, boshqalarning fikrini e'tiborga olmaydigan, ma'naviyati past ekanligi ma'lum bo'ldi. Eng qizig'i shundaki, ushbu toifadagi shaxslar hayotda eng yaqin kishisi hisoblangan turmush o'rtog'i yoki oilaning boshqa a'zolariga nisbatan tajovuzkor munosabatda tazyiq va zo'ravonlik sodir etishadi.

Tabiiki, shaxsning xulq-atvoridagi ta'sirchanlik, his-hayajonga tez berilish, jizzakilik, qo'pollik, o'zini idora qila olmaslik, xatti-harakati oqibatini o'ylamaslik ko'pincha huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning psixologiyasiga xos xususiyat hisoblanadi [11]. Bunday shaxslar, odatda, jabrlanuvchining biror-bir ne'matga egalik qilishiga, shaxsga xavf solishga, o'zining manfaatini boshqalarning manfaatidan ustun

qo'yishga, jabrlanuvchining muayyan harakatlari uchun zo'ravonlik bilan javob qaytarishga harakat qiladilar.

Huquqbuzarlik sodir etish, odatda, biror-bir insonning o'z-o'zidan namoyon bo'ladigan xulq-atvori yoki uning natijasi emas. Huquqbuzarlik uni sodir etgan shaxsning o'ziga xos xususiyatlari tufayli yoki huquqbuzarlik sodir etishidan oldin bevosita uning atrofini o'rab turgan kichik va katta muhitning salbiy ta'siri, shuningdek shaxsning shaxsiy sifatleri natijasida yuzaga keladi [12].

Jabrlanuvchining huquqqa xilof yoki g'ayri-axloqiy xatti-harakatlari yoki axloq-odob qoidalariga zid qarashlari o'ziga nisbatan qo'pol muomala qilinishiga, turli ko'rinishdagi tazyiq va zo'rlik qo'llanilishiga, ko'p hollarda jismoniy zo'rlikdan jabrlanishiga olib kelmoqda. Shu o'rinda sud-tergov amaliyotiga murojaat qilamiz. Misol uchun, K. turmush o'rtog'i B.ni rashk qilib, uni bevafoqlikda ayblagani uchun jahli chiqqan B. turmush o'rtog'ining boshi va qorin qismiga qo'l va oyog'i bilan urib, og'ir tan jarohati yetkazgan. Sud-med ekspertiza xulosasiga ko'ra, fuqaro K.ning olgan tan jarohati og'ir tan jarohati deb topilgan [13]. Bunday shaxslarning hayotiy vaziyatlarni to'g'ri baholamay, shaxsning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli jinoyatlar sodir etishi, shubhasiz, ularning ruhiyatida buzilishlar mavjudligidan dalolat beradi.

Jinoyatning sodir etilishiga imkon tug'ilishi jinoyatchini qaror qabul qilishga undaydi [14]. Barcha sodir etilgan jinoyatlar zamirida muayyan sababiy bog'lanish mavjud bo'ladi, ya'ni jabrlanuvchining u yoki bu harakatlari aybdor bilan o'rtalarida kelishmovchilikni keltirib chiqaradi.

Kriminologiyaga oid adabiyotlarda bunday toifadagi jinoyatlarni sodir etganlar: a) izchil jinoiylashib boruvchilar; b) vaziyatga bog'liq; v) vaziyatga qaram bo'lgan jinoyatchilar [15]ga ajratiladi.

Oilaviy hayotdagi vaziyatlar bilan bog'liq holda huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning o'ziga xos ruhiy xususiyatlari oila-turmush doirasidagi ba'zi nizoli holatlar natijasida vujudga keladi hamda muayyan xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Bunday toifaga kiruvchi shaxslar oilaviy hayotda muammoli yoki nizoli vaziyatlar vujudga kelgan paytlarda huquqbuzarlik sodir etish orqali o'z muammosini yechishga harakat qiladi. Huquqbuzarlik sodir

etilishi uchun biror-bir oddiy vaziyat ham ular uchun yetarli sabab bo'lishi mumkin.

Ta'kidlash kerakki, oila-turmush munosabatlari doirasida zo'ravonlik sodir etgan yoki zo'ravonlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazasining yaratilishi ushbu turdagi jinoyatlarning barvaqt profilaktikasida muhim ahamiyat kasb etadi. «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni-ning 16-moddasida "tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilar, shuningdek zo'ravonlik sodir etgan yoki zo'ravonlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar vakolatli organlar va tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligining yagona elektron ma'lumotlar bazasiga kiritilishi" [16] belgilangan. Bugungi kunda amaliyotda ushbu bazaga tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan va uni sodir etgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar kiritib borilmoqda.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning ma'naviy-ruhiy jihatlari, xulq-atvori tajovuzkorlik xususiyatga ega ekanligi bir qator tabiiy va ijtimoiy fan vakillari tomonidan atroflicha o'rganilgan. Zero, psixologik xususiyatlarni o'zida mujassam etgan shaxs o'z individualligi bilan betakrordir [17].

Shaxsning ichki mayli (rashk, qasos, alam, oilada erkak yoki ayolning bir-biridan ustunlik qilish da'vosi va h.k.) oila-turmushdagi zo'ravonlikning yoki muayyan jinoiy xatti-harakatlarning sodir etilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday obyektiv omillar shaxsda salbiy xususiyatlar shakllanishiga qulay sharoit hisoblanadi. Shaxsdagi salbiy xulq-atvor unda tajovuzkorlik shakllanishiga olib keladi. Tajovuzkorlik deganda, o'z muammolarini hal etish uchun zo'ravonlik vositalaridan foydalanishni afzal ko'rish, nizolarni tajovuz yo'li bilan hal etish orqali jinoyat sodir etish tushuniladi [18]. Tazyiq va zo'ravonlik bilan sodir etiladigan tajovuzkor jinoyatlarning xavflilik darajasini kamaytirish uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va viktimologik profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Shaxsning kriminogenlik darajasi uning jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bunday xulq-atvorli shaxslar o'z yaqinlariga og'ir aziyat yetkazishlari ham bor. Ayniqsa, nomusiga tajovuz qilingan voyaga

yetmagan qizlarda zo'rlanganidan keyin uzoq vaqtgacha qo'rquv, xo'rlanganlik, asabiylik, o'ziga ishonchsizlik his-tuyg'usi bo'ladi, ba'zan esa o'z joniga qasd qilish holatlari sodir etilishi mumkin.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan tajovuzkor xulq-atvorli shaxslar muammoni jinoiy yo'l bilan hal etishga harakat qilishadi. Sud-tergov materiallari va ayblov xulosalarining tahlili asosida aytish mumkinki, ushbu toifadagi shaxslar o'zlarining jinoiy qilmishlarini 51,6 % holatda pichoq, 27,1 % qattiq predmet, 17,6% jismoniy kuch ishlatib, 0,8% zaharli moddalar orqali, 2,9% esa arqon yoki shunga o'xshash vositalardan foydalanib sodir etishgan.

Yuqorida qayd etilgan jinoyatchi shaxslarning demografik ma'lumotlari o'rganilganida, ularning 26,5% nikohsiz (noqonuniy) birga yashagan ayoliga, 38,2% nikohdagi ayoliga, 7,2% nikohdagi eriga, 2,3% nikohsiz birga yashagan eriga nisbatan sodir etganligini kuzatish mumkin. Shuningdek, jinoyatchi shaxslarning 3,8% opa-singlisiga, 2,5% farzandiga, 6,0% boshqa qarindoshlariga nisbatan sodir etishgan.

Zo'ravonlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar motivining barchasi qasdga borib taqaladi. Biroq, ushbu motiv ko'p hollarda boshqa motivlar, xususan, qasos, rashk, hasad, jabrlanuvchini qo'rqitish, aybdor qo'ygan talablarning jabrlanuvchi tomonidan bajari-lishiga erishish kabilar bilan uzviy bog'liq bo'lishi mumkin [19]. Mazkur jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning asosiy qismini 30-55 yoshgacha bo'lganlar tashkil etib, ularning 61%ni ilgari sudlangan shaxslar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida oila-turmush doirasida zo'ravonlik sodir etilgan jinoyat ishlari o'rganilganida uni sodir etgan shaxslarning 43,2% ozodlikdan mahrum etish jazosiga, 26,5% ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga hukm qilinganligi hamda 31,3% esa taraflarning yarashuvi bilan jinoyat ishlari tugatilganligi aniqlandi. Zero, yarashuv bilan jinoyat ishini tugatish kelgusida jinoyatlar sodir etilishining oldini olish hamda jinoyatdan jabrlangan shaxslarni himoya qilishda muhim o'rin tutadi. Bu borada R.Imamov ta'kidlaganidek, yarashuv institutini qo'llashda jinoyatdan jabrlangan shaxslar manfaatlarini inobatga olish lozim [20].

Oila-turmush munosabatlari doirasida xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan qasddan odam o'ldirish jinoyatlari tahlil qilinganida, ushbu sohadagi umumiy jinoyatchilik yildan yilga kamayish tendensiyasi kuzatilsa-da, biroq jinoyatning sodir etilish sabablari, kimlar tomonidan sodir etilishi, sodir etuvchi subyektlar toifasi, sodir etilish joyi, vaqti to'g'risidagi raqamlar bizni xavotirga solmoqda. Xususan, oila-turmush doirasidagi kelishmovchiliklar oqibatida 2021-yilga nisbatan 2022-yilda 11,2%ga, 2022-yilga nisbatan 2023-yilda 2,8%ga, 2023-yil 9 oyiga nisbatan 2024-yilning mos davrida 3,8%ga kamayishiga erishilgan bo'lsa-da, mazkur jinoyatlarning stabiligi hududlar kesimida o'rganilganida, 2021-yilga nisbatan 2022-yilda Surxondaryo viloyatida 40%ga, Namangan viloyatida 37,5%ga, Farg'ona viloyatida 26,7%ga, Andijon viloyatida 16,7%ga, Toshkent shahrida 11,1%ga, 2022-yilga nisbatan 2023-yilda Jizzax viloyatida 133,3%ga, Surxondaryo viloyatida 114,3%ga, Qoraqalpog'iston Respublikasida 33,3%ga, Andijon viloyatida 21,4%ga, 2023-yil 9 oyiga nisbatan 2024-yilning mos davrida Qashqadaryo viloyatida 175%ga, Navoiy viloyatida 100%ga, Buxoro va Xorazm viloyatlarida 66,%ga, Toshkent shahrida 20%ga, Namangan viloyatida 12,5%ga, Andijon viloyatida 10%ga ko'payish holatlari aniqlangan.

Shuningdek, oila-turmush doirasida qasddan odam o'ldirish jinoyatlarining sodir etilish sabablari o'rganilganda, birgina 2024-yilning o'zida sodir etilgan ushbu sohadagi jinoyatlar o'ch olish maqsadida 5,9%, rashk tufayli 19,8%, mol-mulk talashish oqibatida 7,9%, murosasi kelishmaganligi oqibatida 52,6% hamda boshqa sabablar oqibatida 13,8% ni tashkil qiladi. Sabablar kesimida tahlil qilinganda, o'ch olish maqsadida sodir etilgan qotillik jinoyatlari 2021-yilga nisbatan 2022-yilda 28,6% ga kamaygan bo'lsa, 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 25% ga, 2024-yilda esa 2023-yilga nisbatan 100% ga oshib ketishiga yo'l qo'yilgan.

Ushbu jinoyatlarining kimlar tomonidan sodir etilishi tahlil qilinganida, o'rganish natijalari eri tomonidan xotiniga nisbatan sodir etilgan holatlari 2021-yilga nisbatan 2022-yilda 19 taga yoki 11,3%ga kamaygan bir davrda, Namangan viloyatida 200%ga, Navoiy viloyatida 100%ga, Andijon viloyatida 33,3%ga va Toshkent shaharda 16,7% ga ortib ketgan. Shuningdek,

qotillikning eri tomonidan xotiniga sodir etilishi 2022-yilga nisbatan 2023-yilda 9,7%ga, 2023-yilga nisbatan 2024-yilda 9,6%ga ko'paygan. Ushbu ko'payish indeksi 2022-yilga nisbatan 2023-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Buxoro (100%), Surxondaryo (166,7%), Andijon (25%) hamda Farg'ona (12,5%) viloyatlari hissasiga, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan Toshkent shahar (233,3%), Xorazm (200%), Qashqadaryo (150%), Samarqand (100%), Jizzax (50%), Andijon (37,5%), Buxoro (25%) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tahlillar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning aksariyat qismi nosog'lom turmush-tarzi kechiruvchi, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, muayyan faoliyat bilan shug'ullanmaydigan, ma'lumot darajasi past, ilgari sudlangan, ichki ishlar organlarining profilaktik hisobida turgan, agressiv, ruhiy holatida nuqsoni bo'lgan, jizzaki, oila a'zolari bilan munosabati samimiy bo'lmagan toifadagi shaxslar tashkil etadi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning profilaktikasini samarali tashkil etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, ma'muriy hududlarda yashovchi ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarni o'z vaqtida aniqlab, ularga ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy jihatdan yordam ko'rsatish hamda huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni tashkil etish;

ikkinchidan, har bir tazyiq va zo'ravonlikning sabab va sharoitlarini o'rganish, tahlil qilish va ularni kelgusida sodir etilmasligini oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

uchinchidan, tazyiq va zo'ravonlikni barvaqt oldini olishning ta'sirchan tizimini yaratish;

to'rtinchidan, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarni o'z vaqtida aniqlash, ularning viktimlik darajasini kamaytirish maqsadida notinch oilalar bilan manzilli profilaktika ishlarini tashkil etish;

beshinchidan, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikni kamaytirishda OAVlari orqali namoyish etish uchun videoroliklar yaratishda o'zbek xalqining milliy urf-odatlariga tayangan holda, professional ekspertlarni ko'proq jalb etish;

oltinchidan, shaxsni axloqqa va qonunga zid xatti-harakatlardan tiyib turadigan qadriyatlarini tiklash va ularni rivojlantirishga qaratilgan choralarni ishlab chiqish;

yettinchidan, oila-turmush doirasida ko'p huquqbuzarliklar sodir etilayotgan hududlarni aniqlab, ularni tahlil qilish asosida ushbu turdagi huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi maqsadli va tizimli o'tkazilishini ta'minlash

uchun "Turmush" kompleks profilaktik chora-tadbirlari muntazam o'tkazib borish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlarni huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari tomonidan o'z vaqtida amalga oshirilishi xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarning barvaqt oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolari: Yurid. fan. d-ri ... dis. –T., 2006. – B. 75.
2. Ismoilov N.T. Voyaga yetmaganlar jinoyatlarini individual oldini olish muammolari: Yurid. fan. nomz. ... dis. –T., 2007. – B. 73.
3. Otajonov A.A. Jinoyatga daxldorlik: jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar: Yurid. fan. nomz. ... dis. – T., 2009. – B. 90.
4. Ismailov I. Jinoyatchilikda uyushganlik: nazariya va amaliyot muammolari. –T., 2005. – B. 78.
5. Ильяшенко А.Н. Борьба с насильственной преступностью в семье. – М., 2003. – 115 с.
6. Жигаров Е.С., Петухов В.И. Философия. Криминология. –М.: Олма-Прес, 2006. – С. 562.
7. <https://qalampir.uz/news>.
8. Фрейд З. Психология масс и анализ человеческого «Я». Современные проблемы. –М.,1925. –С. 9.
9. Dushanov R.X. Jinoyatchi shaxs psixologiyasi: O'quv qo'llanma. – T., 2011. –B. 15.
10. Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolari: Monografiya / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboyev. –T.: TDYUI nashriyoti, 2005. – B 25-26.
11. Murodov A.Sh. Oilada zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar sodir etuvchi shaxslarning xususiyatlari // O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi Axborotnomasi. –2018. –№3. – B. 73.
12. Saitqulov Q.A. Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasining asosiy yo'nalishari: Ilmiy risola. – T., 2019. – B.56.
13. Qashqadaryo viloyati Qarshi tuman sudining arxivi materiallaridan. 2017.
14. Флоря К.Н. Назначение наказания с учетом обстоятельств совершенного преступления. – Кишинев: Штиинца, 1990. – 83 с.
15. Алауханов Е.О. Криминология: Учебник. – Алматы, 2008. – С. 173.
16. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019-yil., 03/19/561/3680-son.
17. Umumiy psixologiya. –T., 1992. – B. 210.
18. Антонян Ю.М. Психология убийства. – М., 1997. – С. 17–18.
19. Astanov I.R. Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar va ularni tergov qilishning o'ziga xos jihatlari: O'quv qo'llanma. – T.: TDYUU, 2015. –B. 139.
20. Imamov R. Zo'rlik ishlatmasdan talon-toraj qilish jinoyatlari uchun jazo tayinlash: Avtoref. dis. ... kand. yurid. nauk. –T., 2011. –B. 12.

